


SHAHNOZA RAHMONOVA

---

**XX ASR IKKINCHI  
YARMI O'ZBEK  
SHE'RIYATIDA  
ARUZ TIZIMI**




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

**SHAHNOZA RAHMONOVA**

**XX ASR IKKINCHI YARMI O‘ZBEK  
SHE‘RIYATIDA ARUZ TIZIMI**

**MONOGRAFIYA**



**«O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi»  
nashriyot-matbaa birlashmasi  
Toshkent – 2021**

KBK: 83.3(50')  
A 15  
UO'K: 821.512.133.09-1

ISBN 978-9943-7558-2-6

Rahmonova, Shahnoza.

XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida aruz tizimi [Matn]:  
Monografiya / Sh. Rahmonova. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom  
akademiyasi nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 188 b.

Monografiyada XX asr ikkinchi yarmi o'zbek she'riyatida aruz  
tizimining poetik shakl va mazmun takomilidagi o'rni ochib berilgan.  
Tadqiqot uchun shu davrda ijod qilgan shoirlar: Habibiy, Sobir Abdulla,  
Chustiy, Charxiy, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she'riyati asos qilib  
olingan. Ushbu ijodkorlar devonlaridagi vaznlarning mazmun bilan  
munosabatini tadqiq qilish, baytli she'r shakllarining vazn xususiyatlari  
va mazmun uyg'unligi, kichik lirik janrlarning vazn va o'lchov  
darajalari, bandli she'r'larda janr imkoniyatlarining istifoda etilishi bilan  
bog'liq masalalarni yoritish tadqiqotining asosiy maqsadimi tashkil qiladi.  
Monografiya mumtoz poetika, aruzshunoslik va XX asr davri adabiyoti  
bilan qiziquvchi olimlar, tadqiqotchilar va filolog mutaxassislar uchun  
mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**Dilnavoz Yusupova** – filologiya fanlari doktori.

**Taqrizchilar:**

**Nusratullo Jumaxo'ja** – filologiya fanlari doktori, professor.

**Nurboi Jabborov** – filologiya fanlari doktori, professor.

*Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va  
adabiyoti universiteti ilmiy-taxvik Kengashining 2021-yil 24-oktyabrtdagi 8-sonli  
majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan*

© **Rahmonova Sh.**  
© «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi»  
nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021.

## KIRISH

Jahon she'rshunosligida badiiy asarlarning shakliy xususiyatlari,  
she'r qurilishi, kompozitsiyasi, mistra, band, vazn, qofiya, badiiy tasvir  
vositalari bilan bog'liq she'riy unsurlar tadqiqi muhim yo'nalishni  
tashkil etadi. Aruz tizimida yaratilgan badiiy asarlarni tahlil qilish,  
ulardagi she'riy o'lchovlarni poetik shakllar va bahrlar kesimida  
o'rganish, jahon tajribalari asosida she'riy matnning boshqa shakliy  
unsurlar: qofiya, radif, tasviriy vositalar bilan munosabati, asar mazmuni  
bilan uyg'unligini tadqiq etish masalalari adabiyotshunoslikning rivojini  
ta'minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz poetika masalalari, xususan,  
aruz tizimi va uning evolyusion taraqqiyoti, Sharq mumtoz she'riyatida  
aruz tizimi, muayyan asarlardagi mazmun va ritm uyg'unligini tadqiq  
etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilgan va jiddiy yutuqlarga  
erishilgan. Jumladan, aruziy birliklar: *juv, rukn, bahr, vazn, taqti, aruz  
doiralari, vazn ko'rsatkichlari* singari nazariy tushunchalarning o'ziga  
xos xususiyatlari, tasnifi; badiiy asarlardagi qofiya tizimi, badiiy  
san'atlar, ularning she'r tarkibidagi o'rni, matn bilan munosabatiga doir  
masalalarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq XX asr  
o'zbek she'riyatida aruz tizimining poetik shakl takomilidagi o'rni, lirik  
janrlarning vazn xususiyatlari, ularning mumtoz an'analardan ta'sirlanish  
darajasi, vazn va mazmun munosabati bilan bog'liq masalalarni  
o'rganish bugungi aruzshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib  
qolmoqda.

O'zbekistonda mamlakat strategik rivojining bosh omillari  
belgilanar ekan, tarixiy, madaniy, adabiy va san'at asarlari, jumladan,  
she'riyat namunalarini o'rganish, tadqiq etish, ulardagi milliy va  
madaniy merosimizga oid g'oyalarni chuqur va atroflicha tahlil qilish  
yosh avlod ma'naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda  
yuz berayotgan har qanday islohot, avvalo, badiiy adabiyot va  
madaniyatda o'z ifodasini topadi, zero, "adabiyot va san'atga,  
madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga  
e'tibor"dir<sup>1</sup>. G'azal, mustazod, qasida, ruboiy, tuyuq, chiston, fardlar  
xalqimiz badiiy tafakkuri mahsuli bo'lib, aruz tizimida yaratilgan ushbu  
ijod namunalari adabiyotimiz mavzu ko'lami va badiiyatini tashkil  
etishda o'ziga xos taraqqiyot bosqichlariga ega. Bu o'rinda XX asr

<sup>1</sup> Маромаев Ш.М. Адабиёт ва сан'ат: маданиятнинг ривожланиши – халқимиз камонавий оқилолиги  
юксалтиришининг муҳим шарт шартлари // Халқ сўзи. – Т., 2017 йил 4 август.